Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ham ishchi kuchi sifatini oshirish bo'yicha qator ilmiy qarashlar shakllangan. Jumladan, A. Marshall tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda "yuqori mehnat toifasi"ga ega bo'lgan insonlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi yuqori hisoblanishi to'g'risidagi ilmiy qarashlar shakllanganligi ahamiyatga molik. Olim fikricha, insonlarga ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarda ulardagi individual inson kapitalini shakllanishi va to'planishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan holda, ishchi kuchidagi ko'plab ijobiy fazilatlarining rivojlanishiga sabab bo'ladi.[3]

Tahlillarga ko'ra, A. Marshall ilmiy qarashlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, u bilimlarni ishlab chiqarish munosabatlarini harakatga keltiruvchi kuch sifatida baholaganligidadir.

P.Druker "ish bilimlari" muomalaga kiritar ekan, keyinchalik "bilimlar jamiyati"da bazis iqtisodiy resurs kapital, tabiiy resurslar yoki ishchi kuchi emas, balki bilimlar deb tasdiqlagan. U "bilimlar hal qiluvchi resurs va dominantga bo'linib, ehtimol tutilgan raqobat ustunligining yagona manbaiga aylanadi"[4] deb ko'rsatgan.

Amerikalik iqtisodchi E. Denison[5] Amerika iqtisodiyotini tubdan o'rganib chiqdi. Denison fikriga ko'ra inson kapitaliga yo'naltirilayotgan xarajatlar faktori birlamchi omil emas, balki ularning natijaviy sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Denison 1929-1982 yillar oralig'idagi Amerika iqtisodiyotini tahlil qiladi va iqtisodiyotda ishchi kuchi sifatini yuqori o'ringa qo'yadi.

R. Solou[6] texnologiyani sifat jihatidan takomillashtirish, shuningdek, hodimlarning malakasini oshirish dastgohlar va fabrikalar sonini ko'paytirishga qaraganda ancha samaraliroq ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, asosiy vositalarni ilmiy – tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlanmalarini rivojlantirishga yo'naltirish samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Yuqorida tahlil etilgan iqtisodiy nzaariyalar kadrlar tayyorlash menejmentida oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaaro aloqadorliklar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hisobiga ular tomonidan yaratilayotgan ish o'rinlari kesimidagi kasbiy kompetentlik talablarini takomillashib borganligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatda innovasion tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi mehnat bozorida mavjud ish o'rinlari kesimidagi kasbiy kompetentlik talablarini o'zgarishi bilan birgalikda, yangi mutaxassisliklar va kasblar bo'yicha talablarni shakllanishiga olib keladi. Shu sababli, kadrlar tayyorlash menejmentida tadbirkorlik faoliyatini innovasion rivojlanish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beruvchi mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim bilan mehnat bozorlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, jumladan, oliy ta'lim muassasalarining ish beruvchilar bilan kadrlar ta'minoti, hamda innovatsion ehtiyojlari bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o'rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganishlarga ko'ra, bugungi kunda jahon amaliyotida kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishida ta'lim xizmatlari auditoriyada o'qitish, onlayn o'qitish (e-L – e-Learning) ish jarayonida o'qitish (OJT – On the Job Training), keys metod, rolli o'yinlar (RP – Role-Play), seminar va vorkshoplar kabi usullar orqali ko'rsatilishi, hamda ular quyidagi tartibda izohlanishi aniqlandi:

birinchi usul bu kadrlar tayyorlash menejmenti shakllanishining dastlabki bosqichlaridan boshlab to bugungi kunga qadar amal qilib kelayotgan ta'lim xizmatlari ko'rsatishda eng keng tarqalgan an'anaviy hisoblangan auditoriyada o'qitish hisoblanadi. Bunda tegishli soha vakili, mutaxassisi, yoki professor-o'qituvchilar tomonidan belgilangan auditoriyada ma'ruza shaklida ma'lumotlar tarqatiladi va bu klassik yondashuv asosida nazariy bilimlarni uzatishga asoslangan bo'ladi. Ma'ruza shaklida ta'lim berish jarayonlari bir taraflama faollikka asoslangan bo'lib, bunda ko'proq ma'ruzachi o'z nazariy bilimlari bilan auditoriyada ishtirok etayotgan ta'lim xizmatlari iste'molchilarini tanishtiradi. Bu turdagi usul asosida kadrlar tayyorlash menejmentida ta'lim xizmatlari ko'rsatilishini tashkil etish nisbatan osonligi va bir vaqtning o'zida katta auditoriyani qamrab olish imkoniyati mavjud ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunda ko'proq nazariy bilimlarni berishga ustuvorlik qaratilib, amaliyot



bilan uzilishlar ko'zga tashlanishi, shu bilan birgalikda, auditoriya vaqti davomiyligi qanchalik uzoq bo'lsa, ta'lim xizmatlari iste'molchilarining berilayotgan akademik bilimlarni qabul qilish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin bo'ladi. Bu esa kadrlar tayyorlash menejmenti samaradorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlarda amal qilayotgan kadrlar tayyorlash menejmentida auditoriyada tashkil etiladigan o'qitish jarayonlari ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining past salmoqdagi ulushini tashkil etadi;

ikkinchi usul onlayn o'qitish (e-Learning) hisoblanib, ayrim manbalaarda masofaviy o'qitish deb ham ataladi. Ushbu usul kadrlar tayyorlash menejmenti tizimiga dastlab individual tartibda ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotida qo'llanilishi bilan kirib kelib, "Covid-19" inqirozi sharoitida umumiy tartibda ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotida keng qo'llanilganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu usul an'anaviy hisoblangan auditoriyada o'qitish usuliga nisbatan tezkorligi, interaktivligi, vaqt va makon tanlamasligi kabi xususiyatlari hisobiga ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birgalikda, ushbu usul kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishining kam xarajatli (LM – Lean Management) usuli sifatida baholanadi. Mazkur usul orqali ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotini tashkil etishda turli video darsliklar, vebinarlar yordamida masofadan o'qitish mumkin bo'ladi. Jumladan, ushbu usul kadrlar tayyorlash menejmentida nazoratni amalga oshirish bilan birgalikda, ta'lim oluvchilarni rag'batlantirish bo'yicha tegishli choralarning kam qo'llanilishi hisobiga samaradorlik ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin hisoblanadi;

kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishida ta'lim xizmatlari ko'rsatishning ish jarayonida o'qitish (OJT – On the Job Training) usuli korxona hodimlarini ish o'rnidan ajralmagan holatda "ustoz-shogird" tamoyili asosida yuqori malakali usta, yoki yuqori lavozimdagi mutaxassis tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish orqali namoyon bo'lib, avvalgi usullarga nisbatan ta'lim xizmatlari ko'rsatishning amaliy yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, ushbu usul ta'lim xizmatlari iste'molchilariga aniq kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishlari, tezkor moslashuvchanlik va yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlari kengayishi bilan manfaatli hisoblanadi. Ushbu usuldan kadrlar tayyorlash menejmentida amaliy foydalanish uchun oliy ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar o'rtasida kadrlar tayyorlash bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lishi talab etiladi;

kadrlar tayyorlash menejmentida ta'lim xizmatlarining keys metod usuli asosida tashkil etilishi iste'molchilarda tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish ko'nikmalarini haqiqiy muammo (keys) tahlilini amalga oshirish asosida uni samarali hal etish bo'yicha tegishli loyihalarni ishlab chiqishlari, hamda loyiha muallif o'z ishlab chiqqan mummoni hal etishga qaratilgan loyihani himoya qilishi bilan foydali hisoblanadi. Ushbu usulni amaliyotda qo'llashda real voqe'lik sharoitida tegishli keyslarni ishlab chiqish uchun ma'lum bir vaqt sarfi talab etilishi bilan bog'liq muammolar mavjud;

kadrlar tayyorlash menejmentida rolli o'yinlar (RP – Role-Play) usuli orqali ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi iste'molchilarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari bo'yicha kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim xizmatidan foydalanuvchilar ish jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli holatlar, jumladan, muammoli vaziyatlarni rollarni o'zaro taqsimlash asosida namoyon qilib, o'zaro muloqot yuritish, mavjud psixologik holatga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin bo'ladi. Shu bilan birgalikda, ushbu usulni amaliyotda qo'llashda barcha ishtirokchilar birdik faol darajada qatnashmasliklari bilan bog'liq muammolar mavjud hisoblanadi;

seminar va vorkshoplar usuli kadrlar tayyorlash menejmentida ta'lim xizmatlarini aniq mavzudagi amaliy muammoni hal etish bo'yicha yechimlarni ta'lim jarayoni qatnashuvchilari o'zaro birgalikda, interaktiv usulda amaliy mashg'ulot, seminar shaklidagi mashg'ulotlar ko'rinishida ishlab chiqishlariga asoslanadi. Bunda o'zaro hamkorlikda ishlash bo'yicha hodimlarning ijtimoiy-axloqiy sifatlari tarkibiga kiruvchi o'zaro hamkorlikda ishlash, guruhda yoki guruh bilan ishlash bo'yicha, hamda innovation fikrlarni shakllantirish qobiliyatiga xos bo'lgan kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishiladi. Ushbu usuldan foydalanishda professional trenerlarni jalb etish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug'iladi.

Bugungi kunga qadar ta'lim xizmatlari ko'rsatish usullarining tobora kengayib borishi o'z navbatida ularni o'zaro turli kombinatsiyalarda qo'llash asosida kadrlar tayyorlash menejmenti turlarini shakllanishiga olib kelgan. Iqtisodiy fanda G. Dessler[7], E. Esmerova[8], T. Erikson[9], M. Kannistra[10], A. Tanveyer[11], M.B. Mami[12], T.I. Nzimakve[13], S. Riyesner[14] kabi olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarida kadrlar tayyorlashning an'anaviy, strategik, kompetensiyaga yo'naltirilgan va innovation (raqamli) menejmenti kabi turlari o'zaro farqlangan. Kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishining har bir turi ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotining ustuvorliklari va ushbu jarayonda qo'llanilayotgan usullar o'rtasidagi kombinatsiyalarning bir biridan o'zaro farqlanishi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy fanda kadrlar tayyorlash menejmenti turlari amal qilishining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish borasida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishga erishildi:

an'anaviy kadrlar tayyorlash menejmentida ta'lim xizmatlari ko'rsatish asosida ta'lim olayotganlarga tegishli kasb va mutaxassilik bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'ladigan bazaviy bilimlarni auditoriyada o'qitish usulidan faol darajada foydalangan holda, uzoq muddat davom etadigan



dars mashg'ulotlari, seminarlar va klassik treninglar asosida ko'rsatilishini tashkil etishga asoslanadi. Kadrlar tayyorlash menejmentining an'anaviy turi innovasion tadbirkorlikni rivojlantirishni samarali qo'llab-quvvatlash imkonini bermaydi. Chunki bu turdagi kadrlar tayyorlash menejmenti faqatgina umumiy yondashuvga asoslangan bilimlarni berish bilan cheklanib, maqsad rivojlanish emas, balki hozirgi holatdagi rivojlanish darajasini ushlab turish imkonini beruvchi kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bunda oliy ta'lim muassasalarida turli ixtisoslik va mutaxassisliklar bo'yicha o'qitiladigan fanlarning mazmuni uzoq yillar mobaynida o'zgarishsiz qoladi va amaliyot bilan bog'liqlik to'liq ta'minlanmagan bo'ladi.

Shu bilan birgalikda, an'anaviy turdagi kadrlar tayyorlash menejmentida bitiruvchilarga taqdim etiladigan diplom va sertifikatlarida ular o'qigan fanlar kesimida o'zlashtirish ko'rsatichlari berilgan bo'lib, kasbiy kompetensiyaning erishilgan holatini tavsiflovchi baholar keltirilmagan bo'ladi. Xuddi shunday mamlakatimiz amaliyotida ham oliy ta'lim va kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga taqdim etilgan diplomlarda ular tomonidan o'qilgan fanlarning o'zlashtirganlik holatini tavsiflovchi reyting yoki baholar tizim aks ettiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatda kadrlar tayyorlash menejmentining an'anaviy turi ustuvor ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi;

kadrlar tayyorlashning strategik menejmenti milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda turli tarmoqlarning kadrlar kompetensiyasiga qo'ygan talablariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo'ladi. Bunda ta'lim tizimida kelajak kasblari bo'yicha tegishli hisobotlar yuritilib, qaysi yilda qasi tarmoq yoki soha uchun qanday kasbiy kompetentlik darajasidagi kadrlarga bo'lgan talab vujudga kelishi bo'yicha ilmiy asoslangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi. Prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsiyalarni o'zlashtirish va ularni o'zaro uzatish hisobiga sodir bo'ladigan innovasion diffuziya jarayonlarining o'rtacha muddatlaridan kelib chiqib, qisqa va o'rta muddatlarga mo'ljallangan taktik rejalar tuzib boriladi. Bunda kadrlar tayyorlash menejmentida strategik maqsad qisqa va o'rta muddatli maqsadlar "shajaras" asosida amalga oshirilib, muntazam ravishda tuzilgan reja va amaliyotda erishilayotgan natijalar qiyosiy taqqoslanib, tegishli choralarni ko'rish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlashning strategik menejmenti ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarida individual yondashuvga ustuvorlik qaratib, har bir ta'lim oluvchining mavjud imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirilgan va mentorlik dasturlarini ishlab chiqib, liderlik salohiyatini rivojlantirish asosida mutaxassislarni tayyorlaydi. Mazkur boshqaruv turida iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari kutilgan, ya'ni prognoz qilingan ko'rsatkichlarga nisbatan keskin ortib ketgan holatda ham milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalari kesimida kadrlarning kasbiy kompetentligi bo'yicha mos keladigan kadrlar zahirasini ta'minlab berish imkoniyatiga ega hisoblanishi bilan xarakterlanadi. Bu turdagi kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishida mamlakat ta'lim tizimining tarkibiga kiruvchi kasbiy va oliy ta'lim muassasalari o'zlarining ilmiy, akademik va innovasion salohiyatidan kelib chiqqan holda, boshqaruvni amalga oshirishning strategik dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin bo'ladi;

kasbiy kompetensiyaga asoslangan kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishida oliy ta'lim muassasalarining mehnat bozori bilan o'zaro chuqur integratsiyalashuvga kirishgan bo'lishi talab etiladi. Bunda mutasaddi davlat tashkilotlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari kesimida mehnat resurslari balansini yuritishi orqali majud ish o'rinlari bo'yicha kasbiy kompetentlik talablarini ish beruvchilar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlagan holda shakllantirishlari kerka bo'ladi. Shu bilan birgalikda, o'qitish jarayonida ish jarayonida o'qitish (OJT), keys metod, seminar va vorkshoplar usullaridan keng foydalaniladi. Tuziladigan keyslar amaliyotdan olingan bo'lib, ularni hal etish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihalar o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlar asosida eng yuqori aniqlikdagi ilmiy asosgan ega bo'lgan loyihalar amliyotga joriy etiladi. Bunda ish beruvchilar talabalarni talabalar esa drs mashg'ulotlari olib borgan professor-o'qituvchilarni baholaydilar. Professor o'qituvchilar jamlagan baholari ularning ish haqiga ta'sir ko'rsatib, ayrim holatlarda yuqori reytingga ega bo'lgan stajer o'qituvchi yoki katta o'qituvchi fan doktori va professorlarga nisbatan yuqori maosh olishi mumkin bo'ladi.

Kasbiy kompetensiyaga asoslangan kadrlar tayyorlash menejmenti amal qilishi sharoitida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari kesimida majud ish o'rinlari bo'yicha kasbiy kompetentlik talablari ishlab chiqilgan bo'lib, ular texnologik rivojlanish jarayonlariga mos ravishda muntazam takomillashtirib boriladi. Bu esa milliy iqtisodiyot tarmoqlarining innovasion rivojlanish ko'rsatkichlarini barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Tahlillarga ko'ra, kadrlar tayyorlashning kasbiy kompetentlikka asoslangan menejmenti amal qilishiga xos bo'lgan xususiyatlardan mamlakatimizda ish beruvchilar bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida malaka talablarini shakllantirish va har yili oliy o'quv yurtlari tomonidan kvotalarni shakllantirishda korxona va tashkilotlardan talablarni jamlash amaliyoti qo'llaniladi. Lekin ushbu jarayonlarni amalga oshirish mexanizmi mazkur menejment turi talablariga mutlaqo javob bermaydi.

Kadrlar tayyorlashning innovasion (raqamli) menejmenti amal qilishida raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarida ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotida chuqur foydalanilishi bilan xarakterlanadi. Bunda zamonaviy



informasion texnologiyalar (IT) industriyasi mahsulotlari hisoblangan VR-trenajyorlar, LMS-platfomalari sun'iy intellekt va neyronlashtirilgan tizimlar asosida integrnet ashyolari (IoT) orqali "Big Data" ma'lumotlari bazalaridagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida yangi bilimlarni masofaviy, hamda, inetraktiv shakldagi ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotini tashkil etilishi nazarda tutiladi. Bu turdagi kadrlar tayyorlash menejmentida ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyoti ishtirokchilari "raqamli" bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Boshqaruvning ushbu turi zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatishdagi individual yondashuvni kuchaytirib, uning davomiyligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimiz amaliyotida ham kadalr tayyorlashning innovasion (raqamli) menejmenti turiga xos bo'lgan ayrim elementlardan ta'lim tizimida foydalanilishiga qaramay, bu turdagi texnologiyalardan foydalanish maqsadi taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida bo'lgani singari liberal bozor iqtisodiy munosabatlar tamoyillariga mutlaqo zid bo'lib, ko'proq byurokratik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o'quv mashg'uloti xonalari zamonaviy vizual kameralar bilan jihaozlangan bo'lib, bunda maqsad aslida ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotda ishtirok eta olmayotgan talabalar masofadan turib jonli (Live) – onlayn tartibda o'quv mashg'ulotida ishtirok jtishlari uchun ta'minlanishi kerak bo'ladi. Mamlakatimizda esa o'quv mashg'ulot xonalari kuzatuv kameralari bilan jihozlashdan ko'zlangan maqsad bunga to'g'ri kelmaydi. Xuddi shunday boshqa holatlarda ham.

Kadrlar tayyorlash menejmenti turlarining amal qilish xususiyatlarini tadqiq etish asosida mamlakatimiz amaliyotida an'anaviy menejment turidan ustuvor ravishda foydalanilayotganligi, jumladan, boshqa kadrlar tayyorlash menejmenti turlaridan foydalanish maaqsadlari ham aynan an'anaviy shakldagi boshqaruv turini osonlashtirish maqsadida amaliyotga joriy etilayotganligi aniqlandi. Bu esa mamlakatda innovasion tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birgalikda, ushbu sohada kadrlar ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan muammoni samarali hal etish uchun yetarli imkoniyatni bermaydi. Shu o'rinda, o'rganishlar natijalariga yanada aniqlash kiritish maqsadida, iqtisodiy fanda shakllangan kadrlar tayyorlash menejmenti turlarining maqsadi, unda foydalaniladigan ta'lim xizmatlari ko'rsatish formatlari, kamchiliklari va afzalliklar kabi mezonlarga asoslangan holda qiyosiy tahlilni o'tkazish (1.4-jadvalga qarang) orqali quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga erishildi:

birinchidan, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganligi, jumladan, innovasion faollik darajasidan kelib chiqib, turli boshqaruv usullarini o'zaro aloqadorlikda qo'llash asosida har bir innovasion tadbirkorlik sub'yektlarining kasbiy kompetentlik bo'yicha talablariga yo'naltirilgan gidridlashtirilgan xususiy boshqaruv amaliyotini ishlab chiqish kerak bo'ladi;

ikkinchidan, kadrlar tayyorlash menejmentida kadrlarning ma'luoti darajasidan kelib chiqib, jumladan, 25-35 yoshdagilar – yoshlar, 36-45 yoshdagilar o'rta yoshlilar va 45 va undan yuqori yoshdagilar pensiga chiqish holatiga yaqin bo'lgan yuqori malakali kadrlar uchun ularning mehnat qilish salohiyati, jismoniy kuch-quvvatidan kelib chiqib, kadrlar kasbiy kompetenisyasi bilan mehnat bozoridagi potensial talab o'rtasidagi o'zaro integrasion munosabatlarni chuqurlashtirish kerak bo'ladi;

uchinchi, kadrlar tayyorlash menejmenti nafaqat o'qitish, balki, o'rganish muhitini yaxshilashi, tajriba almashinuvi, rag'batlantirish va baholash tizimlarini ham qamrab oladi;

to'rtinchidan, innovasion tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar tayyorlash menejmenti ta'lim xizmatlari ko'rsatish asosida ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashi kerak bo'ladi. Bunda ilm-fan sohasidagi yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan birgalikda, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda ularni innovasion rivojlanishini yanada jadallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini (ITTKI) amalga oshirishning ustuvorliklarini aniqlashi kerak bo'ladi. Bu orqali innovasion rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga erishiladi;

beshinchidan, innovasion tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash menejmenti samarali amal qilishi uchun akademik bilim sohasi bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi o'zaro chuqur integrasion munosabatlarni ta'minlash talab etiladi. Bunda mamlakatda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar tizimiga mos keladigan akademik bilimlar amaliy ko'nikmalar asosida shakllantirilishi va ular muntazam ravishda takomillashtirib borilishi kerak bo'ladi. Bu orqali ta'lim xizmatlari ko'rsatishning ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqadaorligini kuchaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Petti U. Ekonomicheskije i statisticheskiye raboty / U.Petti – M.: Sosekkgiz, 1940. – S.92, 94, 154, 156, 171.
2. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov / A.Smit – M.: Nauka, 1962. – Kn. 1-3. - S.72, 75, 208, 218, 222,490.
3. Marshal A. Principles of Economics / A/Marshal – London, 1967. – P. 619.
4. Drucker P.F. Post – Capitalist Society. – Oxford Butterworth: Heinemann, 1993 – p. 271
5. Edvard Denison (Edward F. Denison, 1915-1992) – amerikalik iqtisodchi. Asosiy asarlari: "AQSHda 1929-yildan 1969-yilgacha iqtisodiy o'sishning tahlili" ("Accounting for United States Economic Growth, 1929-69", 1974), "AQSHda



70-yillarda past iqtisodiy o'sishning tahlili" ("Accounting for Solow Economic Growth: The United States in the 1970's", 1979).

6. Robert Merton Solow (RobertMertonSolow, 23.08.1924y., Nyu-York, AQSH) – "Iqtisodiy o'sish sohasidagi fundamental tadqiqotlari uchun" 1987 yilgi Nobel mukofoti laureati. Asosiy asarlari: "Ish bilan to'la bandlik siyosati" ("Policy of Full Emploment", 1962), "Resurslar iqtisodiyoti va iqtisodiyot resurslari" ("The Economic of Resources and the Resources of Economic", 1974).
7. Dessler G. The basics of human resources management. Data Status, Belgrade, 2007. – 152 pages
8. Esmerova E. Process and Types of Training in Management. Economics and Management. Volume: XIV, Issue: 1, 2018. – pp. 222-229
9. Ericson T. Personal Training: a Theoretical and Emprical Review. Working Paper 2005:1. Institute for Labour Market Policy Evaluation - IFAU. 2005. – 73 pages.
10. Cannistra M., Agasisti T., Amagir A., Poder K., Holz O., Vartiak L., & De Witte K. A comparative analysis of financial literacy levels and initiatives among students in five European countries. Research in Comparative and International Education, No 17 (2), 2022. – pp. 246–280.
11. Tanveer A. Impact of Training & Development on Employees' Performance in Banks of Pakistan. European Journal of Training and Development Studies, No 3 (1), 2015. – pp. 22-44
12. Mamy M.B., Shabbir R., and Hasan Z. The Influence of Training and Development on Employee Performance. Journal of Economics, Management and Trade, No 26 (5), 2020. – pp. 44-58
13. Nzimakwe Th.I., Utete R. Staff training and employee performance: Perspectives of the workplace. International Journal of Business Ecosystem & Strategy, No 6 (1), 2024. – pp. 80-86
14. Riesner, S., Altnau, C., Berner, M. R., Skraba, A., Ajiri, D., & Kopac, L. (2025). Employee Training as a Support for the Professional Development of the Company. Journal of Lifestyle and SDGs Review, No 5 (3), 2025. – pp. 1-17 DOI: 10.47172/2965-730x.SDGsReview.v5.n03.pe05401



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>